

O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KO'NIKMALARNI OSHIRISHDA INTERFAOL METOD VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Alloyerova Bonu Abdulloyevna

Buxoro shahar 2-o'rta maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini oshirish uchun interfaol metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik ko'nikma, interfaol metod, muammoli ta'lim, "Nima uchun?" metodi, "Sehrli qofiya", "Kamalak" metodi, "Suratga qarab top" metodi

Hozirgi davrda o'quvchilarda lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish juda zarur. Shuning uchun har bir o'zbek tili darsligida lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda interfaol metodlar va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir darsda interfaol metodlardan va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarining rivojlanishiga asos bo'ladi.

8-sinf o'zbek tili darsligida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan "Qayerdasan, maktabim!" hikoyasi berilgan. Ushbu mavzuni "Nima uchun?" muammoli ta'lim texnologiyasi orqali mustahkamlasak, yaxshi samara beradi. Bunda "Nima uchun Hoshimjon hech qaysi kasbni egallay olmadi?" degan muammoli savol o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. "Nima uchun?" so'rog'ini beradilar va sxema chizib, shu savolga javob yozadilar. Nima uchun Hoshimjon hech qaysi kasb-hunarni egallay olmadi? Darsda faol bo'lmagani uchun. Ko'cha-kuyda sandiroqlab yurgani uchun. Sehrli qalpoqcha uni bilimdon qiladi deb o'ylagani uchun. Yaxshi o'qiyman deb, hammani aldagani uchun. O'qimasdan biror kasb egasi bo'lmoqchi bo'lgani uchun. Shu kabi javoblar o'quvchilar tomonidan yoziladi va o'rtaga tashlangan muammoga o'quvchilar tomonidan yechim topiladi.

8-sinf o'zbek tili darsligida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan parcha "Qayerdasan, maktabim!" hikoyasini yana muammoli ta'lim metodi orqali ham mustahkamlashimiz mumkin. Bu mavzuni mustahkamlashda sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga muammoli mavzular beriladi. O'quvchilarning vazifasi bu muammoni imkon qadar ochib berishdan iborat bo'ladi.

1. Hoshimjonning xatolari.

2. Hoshimjonning salbiy va ijobiy tomonlari.

Sinf guruhlariga bo'lingan. Har bir guruhga muammoli rejalar bo'lib beriladi.

1-guruhga "Hoshimjonning xatolari" topshiriladi. Guruh Hoshimjonning xatolarini topishi kerak. O'quvchilar tomonidan quyidagi javoblar berilishi mumkin.

- Hoshimjon o'qishni xohlamaydi. Dars jadvalidan algebra, geometriya, ona tili kabi fanlarni olib tashlashni istaydi.

- Hoshimjon qishlog'ini tark etib, katta xatoga yo'l qo'ydi

- Ustozlariga hurmatsizlik qildi.

- Hoshimjon o'qimasdan biror kasb egasi bo'lmoqchi bo'ldi.

- Turli kasblarni: zootexnik, agronom, shoirlik, artistlik, futbolchi, muhandislik kabilarni o'qimasdan egallamoqchi bo'ladi. Lekin har safar kulgili vaziyatlarda qoladi.

- Haqiqatni yuzaga chiqaraman deb, dorilarni zararli dorilar bilan almashtirdi. Bu dorilar begunoh kishilarga jiddiy yetkazishi mumkinligini o'ylamadi.

Shu tariqa Hoshimjonning xatolari ochib beriladi.

2-guruhiga Hoshimjonning salbiy va ijobiy tomonlarini ochib berish topshiriladi. O'quvchilar tomonidan quyidagi javoblar berilishi mumkin.

- Hoshimjon haqiqatparast bola. U folbin xolaning kirdikorlarini ochishga harakat qildi. Odamlar aldanishining oldini oldi.

- Hoshimjon qalban sof, mehrli, qishlog'ini, onasi, singlisini, do'stlarini yaxshi ko'rishini yurakdan aytib ketadi.

- Hoshimjon jindak ayyor, jindak lofchi, jindak qo'rqqoq, jindak quv bola ekanligi ko'zga tashlanadi.

- U qaysi ishga qo'l urmasin, sidqidildan ado etishga, el og'ziga tushish, maqtovlar eshitishga intiladi.

- U o'qishga ilg'or bolalardan emas, yaxshi o'qiyapman deb, oyisini aldaydi.

- Hoshimjon biror ishning uddasidan chiqmasa, darrov sehrli qalpoqcha yordamida turli vaziyatlardan chiqib ketadi.

Shu tariqa bu reja ham o'quvchilar tomonidan ochiladi. Shundan so'ng o'qituvchi tomonidan quyidagi savol beriladi?

O'qituvchi:

- Hoshimjon xatosini tan oldimi?

- Ha, u xatosini tan oldi.

- Chunki o'qimasdan hech narsaga erisholmaslikni bilib oldi.

- O'qish uchun o'z maktabiga qaytdi. O'qimasdan zootexnik, agronom, shoir, muhandis, artist bo'lolmasligini bilib oldi. Tinimsiz mehnat, qunt bilan o'qish natijasidagina biror narsaga erishishni bilib oldi.

O'qituvchi:

- O'quvchilar, ilm olmay turib biror narsaga erishib bo'ladimi? Ilmning inson hayotidagi ahamiyati qanday?

O'quvchilar:

- Ilm insonni ulug'laydi. Insonni har tomonlama yetuk qiladi. Ilmsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ilm insonning hayotini yoritadi.

Bunda yana ilm haqida maqollardan namunalar aytish bahsini o'tkazish mumkin.

- Ilmsiz bir yashar,

- Ilmli ming yashar.

- Ilm – dilning chirog'i.

- Maktab –ilmning chirog'i.

Shu tariqa o'quvchilarning birgalikda muammoga javob topishlari, ularning darsni o'zlashtirishiga yordamchi bo'lishi bilan, yana o'quvchilarda hamjihatlikda faoliyat yuritish

natijasida turli muammolarga javob topish mumkinligi haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Shu bilan birga o'quvchilarning mavzuga oid fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarning diqqatini oshirish, shu bilan birga o'quvchilarning matnni o'zlashtirishni yaxshilash maqsadida "Gapni tez top" metodidan ham foydalanishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarga rasmlar qog'ozlar beriladi. Bu rasmlarda dialoglar berilgan bo'ladi. Har bir o'quvchida har xil rasmlar bo'ladi. O'qituvchining qo'lida ham aynan shunday rasmlar beriladi.

O'qituvchi tomonidan dialoglar o'qiladi. O'quvchilarning vazifasi ushbu gaplarni o'z vaqtida topishi kerak bo'ladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning qanchalik o'zbek tilini o'zlashtirganlarini bilib olsa bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchilarning diqqati qanchalik jamlanganligini aniqlasa bo'ladi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish maqsadida "Suratga qarab top" usulidan foydalansangiz bo'ladi. Bu usulni 7-sinf o'zbek tili darsligida berilgan "Orzumizdagi texnikalar" bobini mustahkamlashda qo'llasak bo'ladi.

Bunda o'quvchilarga slaydlar ko'rsatiladi. Slaydlardagi rasmlarda, masalan, maishiy texnikalar yaratgan insonlarning surati berilgan bo'ladi. Lekin ular bilan bir qatorda turli kashfiyotlar qilgan insonlarning suratini qo'yilgan bo'ladi. O'quvchilarga shu suratlar ichidan maishiy texnikalar yaratgan insonlarning nomini topib yozish topshiriladi. O'quvchilar tomonidan maishiy texnikalar yaratgan insonlar nomi yoziladi. Bu metod orqali o'quvchilarning maishiy texnika yaratgan insonlarni suratlari hamda ismlarini qanchalik bilishlarini bilib olsa bo'ladi.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida "So'zni top o'yini", "Sehrli qofiya" metodlaridan ham foydalanish mumkin. Bu usulda o'quvchilarning nutqini ravon qilib, so'z boyligini oshirish mumkin.

"So'zni top o'yini" metodida o'quvchilarga ma'lum bir mavzu yuzasidan topishmoqlar beriladi. Masalan, 7-sinf o'zbek tili darsligida "Ona tabiat-buyuk ne'mat" bobi berilgan. Ushbu bobni qiziqarli qilib o'rganish maqsadida shu usuldan foydalansangiz bo'ladi. Ikkita mevaning nomi bir mevada. (Anjirshaftoli) Ham qush, ham meva. (Kivi) Bu jonivorning nomini teskari o'qisangiz ham shu jonivor nomi chiqadi. (Kiyik)

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish maqsadida "Sehrli qofiya" usulidan ham foydalansak bo'ladi.

Rang – цвет

Chang- пыл

Мой- масло

Choy- чай

Мыло- sovun

Сила- kuch

Bunday usulda so'z ma'nosini topish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish bilan birga, ularga she'r yodlashga, she'r tuzishda ko'makchi bo'ladi.

“Tez top” metodidan ham foydalanib, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish mumkin. Bunda so‘zlar o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi. O‘quvchilar bu so‘zlarning tarjimasini topishi kerak. Qaysi o‘quvchi ko‘p topsa, o‘sha o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

“Kamalak” interfaol metodidan foydalanib, o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlash mumkin. O‘quvchilarga qog‘ozlar berilgan bo‘ladi. Qog‘ozlarda turli mavzudagi ma‘lumotlar shakllar ichida berilgan bo‘ladi. O‘quvchining vazifasi ushbu ma‘lumotlarni berilgan mos javobga tegishlisini turli ranglarda bo‘yashi lozim bo‘ladi. Masalan, bir qog‘ozda zamonaviy kasblar hamda eskirgan kasblar berilgan bo‘ladi. O‘quvchilar ushbu kasblarni topib, zamonaviy kasblarni yashil rangga bo‘yashi kerak bo‘ladi. Eskirgan kasblarni esa jigarrang rangga bo‘yashi kerak bo‘ladi. Ushbu metod orqali o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlash hamda ularning rang tanlashdagi didlarini bilib olish mumkin.

Yuqoridagi metodlar orqali o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini oshirish. Nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, interfaol metodlar bilan o‘zbek tili darslarini tashkil etish dars samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘quvchilarning fanga qiziqishi ortadi. Bunday usullar orqali dars o‘tish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi bilan birga ularning bilimlari mustahkamlab boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi/metodik qo‘llanma. D. Ro‘ziyeva b lar. TDPUToshkent-2013
2. 11-sinf o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. F. Tolipova va b lar. Toshkent-2020
3. 7-sinf o‘zbek tili darsligi. D. A. Xidoyatova va b lar. Toshkent-2022
4. 8-sinf o‘zbek tili darsligi. X.S. Muxitdinova va b lar. Toshkent-2019
5. WWW.ziyo.uz.com.